



XALQ DEPUTATLARI QO'SHTEPA TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 27 - oktabr

VI-55-85-11-157-K/22

Qo'shtepa tuman hokimligi

Mahalliy budjet mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish jarayonlarida fuqarolarning ishtirokini yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli, 2022-yil 25-oktyabrdagi "Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-409-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qaroriga asosan mahalliy budjet mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish jarayonlarida fuqarolarning ishtirokini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktyabrdagi "Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-409-sonli qaroriga asosan Qo'shtepa tumaniga har biri 2 mingtadan ortiq ovoz to'plagan, lekin g'olib bo'lmagan **7 ta** takliflarni moliyalashtirish uchun respublika budjeti mablag'lari hisobidan **6145 mln. so'm** qo'shimcha mablag' ajratilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishchi guruh xulosalariga asosan, Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashining 2022-yil 7-fevral kungi VI-51-25-11-157-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktyabrdagi "Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

PQ-409-sonli qaroridan kelib chiqib, “Ochiq budget” axborot portalida avtomatik tarzda g‘olib sifatida tanlab olingan 2 mingtadan ortiq ovoz to‘plagan takliflar “g‘olib” deb topilsin.

Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo‘yicha “Manzilliy ro‘yhat” ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda,

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko‘payishi yoki loyihaning o‘zgartirilishi bilan bog‘liq o‘zgartirishlar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaslik;

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan tuman budjeti mablag‘lari tuman hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida jamlangan mablag‘larni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqiqlanishi belgilab qo‘yilsin.

3. Tasdiqlangan Manzilliy ro‘yxat asosida:

- Qo‘sh tepa tuman hokimligi Moliya bo‘limi (I.Akbarov) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta‘minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag‘ manbasi bo‘yicha (4017) “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” maxsus hisob raqamlari ochilishini;

- Qo‘sh tepa tuman hokimligi hisobxonasi, Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag‘lar yo‘naltirilishini;

- Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag‘larni loyiha-smeta hujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha Xalq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma‘lumot kiritib borilishini ta‘minlasin.

4. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (Y.Qosimova) va tuman moliya bo‘limi (I.Akbarov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va “g‘olib” deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo‘yicha ma‘lumotlarni “Ochiq budget” portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta‘minlasin.

5. Tuman budgetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘larining belgilangan

maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag‘larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a‘zolari shaxsan javobgarligi eslatib o‘tilsin.

6. Mazkur bayon ijrosini ta‘minlash va nazorat qilish komissiya a‘zolari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



I.V.Novikov

Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashining
2022 yil 27 oktabrdagi
VI-55-85-11-157-K/22-son qaroriga
1-ilova

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi "Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-409-sonli qaroridan kelib chiqib, "Ochiq budjet" axborot portalida avtomatik tarzda g'olib sifatida tanlab olingan 2 mingtadan ortiq ovoz to'plagan takliflarni moliyalashtirish bo'yicha

MANZILLI RO'YHAT

G'olib taklif ma'lumotlari						Ajratiladigan mablag'	Buyurtmachi etib belgilangan tashkilot
Taklif ID raqami	Taklif turkumi	Qisqacha mazmuni	Tadbirlarning manzili (Joylashgan MFY nomi)	Amalga oshiriladigan tadbir turi	To'plagan ovozlari soni		
Qo'shtepa tumani jami				xxx	29 875	6 145	
1480600017	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Qo'shtepa tumani O'qchi MFY hududidagi Pastki O'qchi, Iqbol va Giloszor ko'chalarini bog'lovchi asosiy yo'lni 2.7 km qismiga qayta asfalt yotqizish uchun.	Qo'shtepa tumani O'qchi MFY	Qurilish	7763	980	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
1480600066	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Qorajiyda qishloq vrachlik punkti, mahalla qabristoni va jome' masjidini joylashgan Xamjihahat, Gilamchi, Shaffof va Jasorat ko'chalari ichki yo'llarini 3 km qismini asfalt qilish kerak. Bu ko'chaga boshqa ichki ko'chalar tutashgan bo'lib aholi eng ko'p yuradigan yo'l hisoblanadi.	Qo'shtepa tumani Xalqobod MFY	Qurilish	6619	1 200	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
1480600050	Boshqa ta'lim muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Qo'shtepa tuman 1-son kasb-hunar maktabiga 750 nafardan ortiq o'quvchilar uchun 2 ta mini sun'iy futbol maydoni qurish	Qo'shtepa tumani Langar MFY	Qurilish	4216	760	Yagona buyurtmachi injinerining kompaniyasi (GUKS)

1480600002	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Assalomu alaykum men Tashabbusli budjet loyihasi haqida eshitib juda xursand bo'ldim, va shu loyhada ishtirok etib o'zimiz yashab turgan Loyson MFY Toshloq ko'chani ikki kilometr ichki ko'chalarni Tashabbusli budjet loyihasida g'olib bo'lib asfalt qildirmoqchimiz Biz bu kunlarni ko'p vaqtlardan beri kutamiz, va bu jarayonda o'z mehnatimiz bilan erishishimiz yanada zavqli, bu uchun prezidentimizga kattakon rahmat.	Qo'shtepa tumani Loyson MFY	Qurilish	3885	900	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
1480600006	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Qo'shtepa tumani Qo'rg'oncha mfy Yakkatut ko'cha 14-uyda joylashgan 28-maktab o'quv xonalarini eshik va romlarini yangilash mavjud sport zalini tamirlash va issiqlik tizimi bilan ta'minlash	Qo'shtepa tumani Qo'rg'oncha MFY	Ta'mirlash	3291	504	Yagona buyurtmachi injineriing kompaniyasi (GUKS)
1480600103	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Yuqumli kasalliklar shifoxonasi kanalizatsiya tarmog'ini ta'mirlash	Qo'shtepa tumani Shodlik MFY	Qurilish	2063	600	Yagona buyurtmachi injineriing kompaniyasi (GUKS)
1480600019	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Qo'shtepa tumani "Mumtoz" mahalla Sherdor hamda Mumtoz ko'chalarini 3,0 km qismini asfaltlashtirish zarur. Nechchi yillardan buyon ushbu ko'chalarga asfalt yotqizilmagan. Aholi qishda loy, yozda chang ko'chalardan qatmaydi.	Qo'shtepa tumani Mumtoz MFY	Qurilish	2038	1 200	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK